

X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi

Inson huquq va manfaatlari himoyasi hamda odil sudlovni ta’minlash yo‘lida

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi fuqarolarning huquq va erkinliklarini, jamoat tartibini, xavfsizlikni ta’minlash, odil sudlovni amalga oshirish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarga qarshi kurashish masalalarida huquqni muhofaza qiluvchi organlar va sudlarga maxsus bilimlarni qo‘llash yo‘li bilan ko‘maklashish maqsadida tashkil etilgan.

Markaz 70 yillik tarixga ega bo‘lib, mana shu uzoq yillik tarixi davomida sud ekspertizasi yo‘nalishida o‘ziga xos maktab yaratdi.

O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi qoshida Toshkent ilmiy-tadqiqot kriminalistika laboratoriyasi 1950-yil 30-dekabrda tashkil etilgan bo‘lib, u 1951-yil 1-iyundan faoliyat yurita boshlagan. Dastlab laboratoriyada sud-xatshunoslik va texnik-kriminalistik ekspertizalarning alohida turlari – trasologik, daktiloskopik va sud ballistik ekspertizalari bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilgan.

Sud ekspertizasining jinoyatlar ochishidagi rolining o‘sib borishi, respublikada uni rivojlantirish zaruriyati, malakali ekspert-kriminalist kadrlarning mavjudligi akademik Xadicha Sulaymonova tashabbusi bilan 1958-yil 24-yanvarda laboratoriya negizida Markaziy Osiyoda birinchi Toshkent sud ekspertizasi ilmiy-tadqiqot institutiga asos solingan.

Mustaqillik yillarida amalga oshirilgan sud-huquq sohasidagi islohotlar jarayonida markaz faoliyatini rivojlantirish, sud-ekspertlik amaliyotini takomillashtirish masalalariga ham jiddiy e'tibor qaratildi. Jumladan, Respublikada sud ekspertizasi faoliyatini takomillashtirish, sohada ilmiy izlanishlarni rivojlantirish, odil sudlovni ta’minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1995-yil 22-iyundagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining ekspertiza xizmatini rivojlantirish to‘g‘risida”gi 234-qaroriga asosan Toshkent sud ekspertiza ilmiy-tadqiqot instituti Respublika ilmiy-tadqiqot kriminalistika markaziga aylantirilib, unga Respublikada sud ekspertiza masalalari bo‘yicha ilmiy-uslubiy hamda muvofiqlashtiruvchi idora vazifasi yuklatildi. Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 27-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 370-qaroriga binoan uning bu maqomi yanada mustahkamlandi va nomi Respublika sud ekspertizasi markazi etib qayta tashkil qilindi.

Respublika sud ekspertizasi markaziga quyidagi huquqlar berilgan:

- sud ekspertizasini rivojlantirish yuzasidan zarur chora-tadbirlarni amalga oshirish; sud-ekspertlik amaliyotiga yangi uslublarni joriy etish yuzasidan boshqa sud ekspertizasi muassasalariga tavsiyalar berish; ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish maqsadida grant mablag‘lari olish uchun tanlov va tenderlarda ishtirok etish; belgilangan tartibda boshqa davlatlar sud ekspertizasi muassasalari bilan tuzilgan shartnomalar (kelishuv) asosida mutaxassislar, ilmiy-texnik hujjatlar, ilmiy-ishlab chiqarish tajribasi va boshqa axborot almashinuvini amalga oshirish;

- ekspertlarning mehnat sharoitlarini yaxshilash, moddiy va ijtimoiy ta’minlash choralarini ko‘rish; davlat sud eksperti sifatida attestatsiyadan o‘tgan xodimlarga belgilangan tartibda guvohnomalar, malaka va huquqiy bilimlarni oshirishdan o‘tgan xodimlarga belgilangan tartibda sertifikatlar berish; o‘z faoliyatini rivojlantirish maqsadida markazni rivojlantirish jamg‘armasini tashkil qilish; xalqaro konferensiya, seminar va boshqa anjumanlarni tashkil qilish hamda ularda ishtirok etish.

Hukumatning 2017-yil 13-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertlarining malakasini oshirish tizimini tashkil qilish to‘g‘risida”gi 206-qaroriga asosan barcha viloyatlarda Markazning hududiy bo‘limlari tashkil etildi. Shuningdek, ekspertlarning malakasini zamon talablari darajasida oshirish uchun o‘quv markazi faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Hozirgi kunda bu yerda nafaqat markaz va boshqa davlat sud ekspertizasi muassasalari ekspertlarining huquqiy bilimlari, balki yangi tashkil etilayotgan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari ekspertlarini ham qayta tayyorlash hamda malakasini oshirish ishlari amalga oshirilmoqda.

2019-yil 17-yanvar kuni qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qaroriga muvofiq amaliyotda ilk bor nodavlat tashkilotlar tomonidan sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari yaratildi va hukumatimizning 180-qarori bilan nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari faoliyatini tashkil etish tartibi belgilandi.

Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 20-apreldagi “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini takomillashtirish to‘g‘risida”gi 338-qaroriga asosan Respublika sud ekspertizasi markazining yangilangan tashkiliy tuzilmasi tasdiqlandi. Unga ko‘ra, markazning shtat birliklari ko‘paytirildi, Sifat menejmenti, Xalqaro hamkorlik va jamoatchilik bilan aloqalar bo‘limlari va Ishlar boshqarmasi tashkil etildi.


Sud-tergov idoralari topshiriqlariga binoan sud ekspertizasini o‘tkazish markaz faoliyatida asosiy o‘rin egallaydi. So‘nggi 3 yilda markazda sud-tergov organlarining qaror va ajrimlariga binoan 8 064 400 ta obyekt bo‘yicha tadqiqot olib borilgan. Sud-ekspertiza jarayonida 398 457 savol hal etilib, 97 987 ta ekspertiza xulosasi berilgan.

☞ Markaz nafaqat sud ekspertizasi tadqiqotlarini amalga oshirish, balki yangi ekspertiza turlari va uslublarini joriy etish bo‘yicha ham keng ko‘lamli ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirmoqda. Xususan, olib borilgan ilmiy izlanishlar natijasida keyingi 3 yil ichida sud-lingvistika, sud-kompyuter-texnik, sud-avtomobil yo‘llari, sud-elektrotexnika, sud-psixologik, oziq-ovqat mahsulotlari sud ekspertizasi, sud-soliq, oziq-ovqat mahsulotlarini baholash ekspertizasi kabi yangi ekspertiza turlari yaratilib, sud ekspertlik ja-









rayoniga tatbiq etildi va natijada markazda amalga oshiriladigan ekspertiza turlari 52 taga, mutaxassisliklar esa 71 taga yetkazildi.

Markaz xodimlari O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining ilmiy-tadqiqot muassasalari va oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlikda ilmiy izlanishlar olib borishi natijasida 53 ta uslubiy qo‘llanma va tavsiyalar ishlab chiqilib, sud ekspertlik faoliyatiga tatbiq etildi hamda “Zamonaviy sud-ekspertiza imkoniyatlari” nomli o‘quv qo‘llanmasi chop etildi.

Davlat sud ekspertiza muassasalari tomonidan o‘tkaziladigan bir xil ekspertizalarni o‘tkazish bo‘yicha idoralararo uslubiyotlar ro‘yxatini yuritish tartibi tasdiqlanib, uslubiyotlarning ro‘yxati markaz rasmiy veb-saytida muntazam yangilanib kelinmoqda. Markaz laboratoriya va bo‘limlari tomonidan 23 ta mavzudagi ilmiy-tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.


Bugungi kunda Respublika sud ekspertizasi markazi o‘z faoliyatini eng zamonaviy texnologiyalar va jahon talablariga javob beradigan xalqaro standartlar asosida olib bormoqda. Markaz laboratoriyalarini xalqaro standartlarga moslashtirish maqsadida, 2020-yilda BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasi Markaziy Osiyodagi mintaqaviy vakolatxonasi ko‘magida ISO/IEC 17025 xalqaro standartiga muvofiq akkreditatsiya qilinib, muvofiqlik sertifikatiga ega bo‘ldi. Mazkur akkreditatsiya markazga tadqiqotlarni xalqaro standartlar darajasida bajarish imkonini beradi hamda mazkur laboratoriyalar tomonidan berilgan xulosalarning xalqaro miqyosda shubhasiz tan olinishi, fuqarolarimizning huquq va manfaatlari nafaqat mamlakatimiz hududida, balki xalqaro sudlarda ham ishonchli himoya qilinishiga hamda odil sudlov ta’minlanishiga xizmat qiladi.



Akkreditatsiya:

- sud-ekspertiza laboratoriyalari faoliyatining ilmiy-texnik darajasi va sud ekspert xulosalarining ishonchliligini oshirishga;
- ushbu laboratoriyalar faoliyatini baholashni obyektivlashtirish va sud ekspert xulosalarining sud jarayonida shubhasiz tan olinishiga;
- ashyoviy dalillarni tekshirish va tashkilotning sud-ekspertlik texnologiyalarini muqobillashtirishga, xususan, ekspertiza ijro muddatlari qisqartirilishiga;
- sud ekspert xulosalarining nafaqat mahalliy sud va tergov jarayonlarida, balki xorijiy va xalqaro sud jarayonlarida ham qo‘llanishiga imkoniyat yaratadi.





X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi tashkil etilganligining 70 yilligi munosabati bilan 2021-yil 30-iyun kuni “Sud ekspertizasi: kecha va bugun” mavzusida xalqaro forum tashkil etildi. Shu kuni “O‘zbekiston sud ekspertizasining tarixi” muzeyining ochilish marosimi ham bo‘lib o‘tdi. Markaz haqida hujjatli film tayyorlanib, ijtimoiy tarmoqlar orqali omma e’tiboriga yetkazildi.

So‘nggi yillarda markaz xodimlari va ekspertlari tomonidan turli davlat organlari va tashkilotlariga 1660 ta profilaktik taklif berildi. Aholining huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan hamda qonuniylikni ta’minlash yuzasidan 2506 marta huquqiy targ‘ibot tadbiri, hududiy seminar va vebinarlar tashkil etildi.

Shuningdek, markazning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida “Sudexdan gapiramiz” va “Ekspert javobi” nomli ruknlar yaratilib, unda ekspert xodimlar tomonidan fuqarolardan kelib tushgan savollarga audio va video ko‘rinishida javob berilishi yo‘lga qo‘yildi.

Respublikada ilk bor markaz tomonidan sud ekspertiza yo‘nalishiga ixtisoslashgan “O‘zbekiston sud ekspertizasi” nomli ilmiy jurnal nashrdan chiqarildi. Yaqinda tergovga qadar tekshiruv, surishtiruv va dastlabki tergov organlari xodimlari hamda sudyalar uchun Respublika sud ekspertizasi markazining sud-ekspertiza imkoniyatlari bo‘yicha “Elektron qo‘llanma” ishlab chiqilib taqdim etildi.

Markaz tomonidan sud-ekspertlik faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, Rossiya federal sud ekspertizasi markazi, Ukraina Adliya



vazirligining Sud ekspertizasi milliy ilmiy markazi va Belarus Respublikasi Davlat sud ekspertizasi qo‘mitasining Ilmiy-amaliy markazi bilan hamkorlik to‘g‘risida memorandumlar imzolandi.

Hozir Turkiya, Malayziya, Hindiston, Qozog‘iston va Armaniston sud ekspertizasi muassasalari bilan hamkorlik o‘rnatish bo‘yicha kelishuvga erishilib, shartnomalar imzolash jarayonida turibdi. Shu bilan birga, Ukraina Ichki ishlar vazirligining ekspert-kriminalistika markazi bilan hamkorlik qilish bo‘yicha muzokara olib borilmoqda. Markazning Jahon sud ekspertlari assotsiatsiyasiga (IAF) a’zo bo‘lishi yuzasidan zaruriy choralar ko‘rilmoqda.

Markaz xodimlarining nufuzli chet el muassasalarida malakasini oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Sud ekspertiza faoliyatiga zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalari yutuqlarini joriy etish maqsadida “Sud ekspertizalari hisobi tizimi” axborot tizimi hamda aholiga sud-ekspertlik sohasiga doir ma’lumotlarni tezkor yetkazishga qa-

ratilgan “sudexpert.uz” axborot portali, ekspertiza uchun ashyoviy dalillarni identifikatsiyalash dasturi ishlab chiqilib, faoliyatga tatbiq etildi.

Markazda ekspert kadrlarni qayta tayyorlash masalasiga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, oliy ta’lim muassasalari bilan hamkorlik yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, Toshkent davlat yuridik universiteti bilan hamkorlikda universitet professor-o‘qituvchilari va talabalariga markazda amaliy mashg‘ulot hamda tadqiqotlar olib borish uchun zarur shart-sharoit yaratish maqsadida “Amaliy huquqshunoslik” kafedrasi tashkil etildi.

So‘nggi yillarda sud-ekspertiza faoliyatini takomillashtirishga qaratilgan bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, sohaga doir huquqiy asoslar takomillashib bormoqda. 2021-yil 5-iyuldagi “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6256-Prezident farmoni bilan mamlakatimizda sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021 – 2025-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi va 2021 – 2023-yillarda amalga oshiriladigan ishlar yuzasidan “yo‘l xaritasi” tasdiqlandi.

Sud-ekspertlik faoliyatini rivojlantirishning 2021 – 2025-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasida quyidagi asosiy maqsadlar belgilandi:

- sud ekspertlarining xolisligi va mustaqilligini ta’minlash, sohadagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirib borish;
- sud-ekspertlik amaliyotini kengaytirish hamda sud ekspertizalarining sifati va ishonchliligini oshirish;
- sud-ekspertlik faoliyatida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish, shu jumladan uslubiyot va reglamentlarni takomillashtirish hamda sohaga fan va texnika yutuqlarini joriy etish;
- sud-ekspertlik faoliyatida kadrlar salohiyatini oshirish hamda sud ekspertlarini tayyorlashning samarali tizimini yaratish;
- nodavlat sud-ekspertiza institutini rivojlantirish;
- sud-ekspertlik faoliyati sohasida xalqaro hamkorlikni ta’minlash va rivojlantirish;
- sud-ekspertlik faoliyatining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash.

Mazkur tadbirlar ijrosi yuzasidan hukumatimizning 2022-yil 22-noyabr kuni “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud-ekspertiza markazining Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 704-qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan respublika tarixida ilk marotaba yuridik shaxs tashkil etmagan holda 15 ta shtat birligidan iborat bo‘lgan X. Sulaymonova nomidagi Respublika Sud-ekspertiza markazining Sud-ekspertlik ilmiy-tadqiqot instituti faoliyati tashkil etildi.

Muqaddam davlat sud ekspertlari sud ekspertizalari bilan bir qatorda ilmiy-tadqiqot ishlari bilan ham shug‘ullanar edi. Endi ilmiy tadqiqot ishlari mazkur institut tomonidan professional tarzda olib boriladi hamda ekspertiza muassasalariga ko‘mak beradi.

Shuningdek, institut sud-ekspertlik faoliyati sohasiga zamonaviy ilmiy yondashuvlarni qo‘llash orqali uning samaradorligini oshirish, ushbu sohadagi ilmiy-tadqiqot ishlarini yangi bosqichga ko‘tarish, davlat sud-ekspertiza muassasalari va nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlariga ilmiy-uslubiy jihatdan ko‘maklashish, ularning faoliyatini rivojlantirish hamda takomillashtirishda ishtirok etish, sud-ekspertiza faoliyatini ilmiy-uslubiy jihatdan ta’minlash, sud ekspertizasi sohasidagi tizimli muammolarni kompleks o‘rganib, ularni hal etishga doir ilmiy asoslangan takliflar va ta’sirchan mexanizmlarni ishlab chiqadi.

Ushbu institut tarkibida Idoralararo ilmiy-uslubiy kengash ham tuziladi. Ushbu kengash tarkibi sud-ekspertiza muassasalari bo‘lgan davlat organlarining qo‘shma qarori bilan tasdiqlanadi va unga davlat sud-ekspertiza muassasalari, nodavlat sud-ekspertiza tashkilotlari, ilmiy muassasalar hamda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning a’zolari kiritiladi.

Bundan tashqari Vazirlar Mahkamasining “Sud ekspertiza sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 706-qarori ham qabul qilinib, bir qator hujjatlar tasdiqlandi va sud ekspertiza faoliyatiga tatbiq etildi.

Jumladan, dual ta’limni tashkil etish, sud-ekspertiza sohasida dual ta’lim bo‘yicha kadrlarni qayta tayyorlashning asosiy vazifalari va bosqichlari, o‘quv kurslariga talabgorlardan hujjat qabul qilish, o‘quv jarayonini tashkil etish, tinglovchilar bilimini baholash tartibi hamda tomonlarning vazifalari, huquqlari va majburiyatlarini nazarda tutuvchi Sud ekspertiza sohasida dual ta’lim bo‘yicha kadrlarni qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish tartibi to‘g‘risidagi nizom tasdiqlandi.

Mazkur qarordan ko‘zlangan asosiy maqsad oliy ta’lim muassasalarining bakalavriat yoki magistratura bosqichlarida ta’lim olayotgan talabalar, shuningdek, oliy ma’lumotga ega bo‘lgan talabgorlarning nazariy bilim va amaliy ko‘nikmalarini shakllantirish hamda sud ekspertizasi sohasiga yetuk malakali kadrlarni jalb qilishdan iborat.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-yanvardagi “Sud-ekspertlik faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan sohaga bir qator yangiliklar tatbiq etilgan edi. Misol uchun ushbu qaror bilan amaliyotda ilk bor nodavlat tashkilotlar tomonidan sud-ekspertlik faoliyatini amalga oshirishning huquqiy asoslari yaratildi.



Oxirgi yillarda bir necha nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari ochilib, faoliyat yuritib kelmoqda. Lekin ushbu tashkilotlarda ishlaydigan ekspertlarning fuqarolik javobgarligini sug‘urtalash masalasi hal etilmagan edi.

Mana endi nodavlat sud ekspertiza tashkilotlari sud ekspertlarining javobgarligini majburiy sug‘urtalash belgilandi.

Ya’ni sud ekspertlarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilishda sug‘urta obyekti va subyekti, majburiy sug‘urta shartnomasini tuzish tartibi, majburiy sug‘urta shartnomasi bo‘yicha sug‘urta summasi, sug‘urta qildiruvchi va sug‘urtalovchining huquq va majburiyatlari, sug‘urta mukofotini aniqlash va uni to‘lash tartibini nazarda tutuvchi Nodavlat sud-ekspertiza tashkiloti sud ekspertlarining fuqarolik javobgarligini majburiy sug‘urta qilish qoidalari tasdiqlandi.

Bundan tashqari, 51 xil sud ekspertizasini o‘z ichiga olgan Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlariga muvofiq o‘tkazilishi mumkin bo‘lgan sud ekspertizasi turlari bo‘yicha tadqiqotlar ro‘yxati ham tasdiqlandi.

Ushbu ro‘yxatga muqaddam faqat sudlar va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qarori va ajrimlariga muvofiq o‘tkaziladigan tadqiqotlar ham kiritildi.

Jumladan, sud-xatshunoslik ekspertizasi, sud-portret ekspertizasi, neft mahsulotlari va yoqilg‘i-moylash materiallarining sud ekspertizasi, sud-siyosatshunoslik-lingvistik ekspertizasi, sud-psixologik ekspertizasi, mikrozarrachalar ekspertizasi, zaharli ximikatlar va og‘ir metall tuzlari ekspertizasi va boshqalar.

2022-yil 10-yanvar kuni Prezident farmoni bilan belgilangan vazifalarni amalga oshirishga qaratilgan Vazirlar Mahkamasining “O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X. Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi faoliyatini yanada takomillashtirish hamda sud ekspertizasi sohasida ekspertlik ishlarini

yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”-gi qarori qabul qilindi.

Mazkur qaror bilan birinchi navbatda Respublika sud ekspertizasi markazining Farg‘ona, Surxondaryo, Xorazm viloyat hududiy bo‘limlarida Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi hamda Samarqand viloyat hududiy bo‘limida Odam DNKsi sud-biologik ekspertizasi va Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyalari bosqichma-bosqich tashkil qilinishi belgilangan.

Odam DNKsi sud biologik ekspertizasi laboratoriyasi markaz tarkibida 2000-yilda o‘z faoliyatini boshlagan. Ushbu laboratoriya Markaziy Osiyoda mazkur yo‘nalishdagi tashkil etilgan birinchi laboratoriya hisoblanadi. Hozirgi kunda ham ushbu laboratoriya respublikamizda odam DNKsi sohasida yagona sud-ekspertiza laboratoriyasi bo‘lib qolmoqda. Laboratoriya tomonidan o‘tkazilgan ekspertizalar soni yildan-yilga oshib bormoqda. Ayniqsa, respublikamiz hududlaridan tayinlanayotgan ekspertizalar va kelib tushayotgan tadqiqotlar o‘tkazish haqidagi murojaatlar soni ushbu ekspertiza turiga bo‘lgan ehtiyoj oshib borayotganidan dalolat beradi. Bundan tashqari, 2020-yil 24-noyabrda O‘zbekiston Respublikasining “Genom bo‘yicha davlat ro‘yxatiga olish to‘g‘risida”gi qonunining qabul qilinishi odam DNKsi yo‘nalishidagi tadqiqotlarni yanada rivojlantirish va kengaytirishni taqozo etadi.

Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi markaz tarkibida 1972-yilda tashkil etilgan. Hozirgi paytda laboratoriyada 22 ta ekspertiza turi bo‘yicha tadqiqotlar o‘tkazilmoqda. Xususan, laboratoriyada o‘tkazilayotgan tadqiqotlarning aksariyatini neft mahsuloti, lok-bo‘yoq qoplamalari, boshqa tur obyektlar (mineral o‘g‘itlar, kislotalar, zaharli kimyoviy moddalar, tabiati noaniq bo‘lgan moddalar) hamda mikrotolalar sud ekspertiza tadqiqotlari tashkil etadi. Bundan tashqari, laboratoriyada giyohvand vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlar bo‘yicha ham ekspertiza tadqiqotlari o‘tkaziladi.

Shunga ko‘ra, yuqorida qayd etilgan markazning 4 ta hududiy bo‘limi tanlanib, ular tarkibida Odam DNKsi sud biologik ekspertiza laboratoriyalarini hamda 1 ta hududiy bo‘limda Materiallar, ashyolar va buyumlar kriminalistik ekspertizasi laboratoriyasini tashkil etish belgilandi.

Ushbu jarayon bosqichma-bosqich amalga oshiriladi.

Yangi tashkil etilayotgan ushbu bo‘limlarni ISO/IYEK 17025 standarti talablariga javob beradigan binolarga joylashtirish hamda maxsus mebel, kompyuterlar, boshqa zarur texnika va inventarlar bilan ta’minlash choralari ko‘rilishi belgilandi. Ushbu maqsadda mazkur qarorning 1-ilovasiga muvofiq 2022 – 2024-yillarga mo‘ljallangan markaz va uning hududiy bo‘limlarining moddiy-texnik bazasini yangi zamonaviy uskuna va jihozlar bilan ta’minlash bo‘yicha chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston Respublikasida sud-ekspertlik tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6256-Prezident farmoni bilan 2021 – 2025-yillarda joriy etiladigan ekspertiza va tadqiqot turlari ro‘yxati tasdiqlangan bo‘lib, unga ko‘ra 16 ta yangi ekspertiza joriy etilishi belgilangan. Jumladan, 2022 – 2023-yillarda markaz tomonidan sovuq qurollarning kriminalistik ekspertizasi, radiotexnika, bank sohasida boy berilgan foydani aniqlash va sud psixologik-filologik ekspertizasi joriy etilishi rejalashtirilgan.

Xulosa qilib aytganda, yuqorida qayd etilgan normativ hujjatlar asosida markaz faoliyatini yanada takomillashtirishga, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar, yuridik va jismoniy shaxslarning malakali ekspertiza tadqiqotlariga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirishga, sud ekspertlarining ijtimoy himoyasini ta’minlashga katta imkoniyat yaratildi.

Akram XALILOV,
X. Sulaymonova nomidagi
Respublika sud ekspertizasi markazi direktori